Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 5, Issue 5, 2026 Traditional Medicine

SUT BEZI SARATONIDA QO‘LLANILADIGAN AYRIM DORI VOSITALARI VA XALQ TABOBATINING IMKONIYATLARI

Ibrohimjon Rahmonovich Asqarov
Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, O‘zbekiston TABOBAT Akademiyasi raisi
https://orcid.org/0000-0003-1625-0330

Sanjarbek Toyirovich Saydullayev
Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Andijon viloyat filiali, Shifokor
https://orcid.org/0009-0003-9026-8501

Mirjalol Muqimjon o'g'li Mo'minjonov
Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi professori v.b., kimyo fanlari doktori (DSc), O'zbekiston Tabobat akademiyasi raisi o'rinbosari
https://orcid.org/0009-0002-8896-202X
E-mail: mirjalolmominjonov0@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol5.iss5.2026.782

Kalit so'zlar:
sut bezi saratoni, kimyoterapiya, nojo‘ya ta’sirlar, xalq tabobati

Annotatsiya
Maqolada sut bezi saratonini davolashda qo‘llaniladigan asosiy sintetik dori vositalarining foydali tomonlari va asoratlari yoritilgan. Shuningdek, xalq tabobati va integrativ usullarning standart davolash bilan birga qo‘llanishi, ularning ilmiy asoslangan imkoniyatlari tahlil qilingan.

Havola uchun
Asqarov, I. R., Saydullayev, S. T., & Mo'minjonov, M. M. o'g'li. SUT BEZI SARATONIDA QO‘LLANILADIGAN AYRIM DORI VOSITALARI VA XALQ TABOBATINING IMKONIYATLARI. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 5(5). https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol5.iss5.2026.782

KIRISH

Sut bezi saratoni ayollarda eng ko‘p uchraydigan xavfli o‘smadir. 2022-yilda dunyoda 2,3 milliondan ortiq yangi holat va qariyb 670 ming o‘lim qayd etilgan [1]. Mamlakatimizda ham bu kasallik ayollar saratoni orasida birinchi o‘rinda turadi. Ushbu kasallikka chalinganlar har 100 ming aholining 27,8 tasini tashkil etadi [2].

Hozirgi kunda sut bezi saratoniga qarshi qo‘llanilayotgan dorilar bemorlar sog‘ayib ketishiga ijobiy ta’sir etmoqda. Biroq ushbu dorilarning deyarli barchasi jiddiy nojo‘ya ta’sirlarga ega va bemorlar saraton bilan birga uni davolash asoratlaridan ham aziyat chekayotgani sir emas. Shu sababli asoratlarni yengillashtiradigan, xavfsiz xalq tabobati usullari va tabiiy vositalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

1. Asosiy dori vositalarining foydali xususiyatlari, nojo‘ya ta’sirlari va asoratlari.

Kimyoterapevtik dorilar (doksorubitsin, epirubitsin, paklitaksel, dotsetaksel, siklofosfamid, kapetsitabin, karboplatin) tez bo‘linuvchi o‘sma hujayralarini yo‘q qiladi. Erta bosqichda ular kasallik qaytalanishi va o‘lim xavfini sezilarli kamaytiradi [3, 4]. Ammo ular sog‘lom tez bo‘linuvchi hujayralarni ham shikastlaydi. Natijada soch to‘kilishi, kuchli ko‘ngil aynishi va qusish, og‘iz yaralari, qon hujayralari kamayishi va og‘ir infeksiyalar xavfi yuzaga keladi. Antratsiklinlar (doksorubitsin, epirubitsin) yurak mushagini qaytmas darajada shikastlab, yurak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin [5]. Taksanlar qo‘l-

oyoqlarda uvishish va og‘riq bilan kechuvchi neyropatiyani keltirib chiqaradi, u ba’zan davolash tugaganidan keyin ham yillar davomida saqlanadi [6]. Ayrim dorilar bepushtlik va erta menopauzaga sabab bo‘ladi.

Gormonal dorilar (tamoksifen, letrozol, anastrozol) gormonga bog‘liq saratonda qaytalanish va o‘lim xavfini kamaytiradi, lekin 5–10 yil davomida ichiladi. Tamoksifen qon quyqalari va bachadon saratoni xavfini oshiradi, aromataza ingibitorlari esa suyak mo‘rtlashuvi va sinishlarni ko‘paytiradi [7].

Nishonli dorilar va immunoterapiya (trastuzumab, trastuzumab derukstekan, pembrolizumab) ma’lum turdagi saratonlarda yashovchanlikni sezilarli uzaytiradi. Shu bilan birga, trastuzumab yurak faoliyatini susaytirishi, trastuzumab derukstekan esa ba’zan o‘limga olib keluvchi o‘pka yallig‘lanishini chaqirishi mumkin. Bu asorat bemorlarning 12,1 foizida qayd etilgan [8]. Immunoterapiya esa immun tizimning o‘z a’zolariga (qalqonsimon bez, ichak, o‘pka, jigar) hujum qilishiga sabab bo‘lishi mumkin [9].

1-jadval.

Asosiy dori guruhlarining qisqacha tavsifi

Dori guruhi	Foydasi	Zarari
Antratsiklinlar	Qaytalanish va o‘limni kamaytiradi	Yurak shikastlanishi, qusish, soch to‘kilishiga sabab bo‘ladi
Taksanlar	Erta va kech bosqichda samarali ta’sir qiladi	Neyropatiya, infeksiyalar, shishlar paydo qiladi
Gormonal dorilar	Sog‘lom hujayralarni uzoq muddat himoya qiladi	Suyak mo‘rtlashuvi, tromboz, bo‘g‘im og‘riqlarini keltirib chiqaradi
Nishonli dorilar	Sog‘lom hujayralar yashovchanlikni uzaytiradi	O‘limga olib keluvchi yurak va o‘pkayallig‘lanishini keltirib chiqaradi
Immunoterapiya	Agressiv saratonda samarali	Autoimmun yallig‘lanishlarni keltirib chiqaradi

Asoratlar bemorning hayot sifatini pasaytiribgina qolmay, davolashning o‘zini ham xavf ostiga qo‘yadi. Masalan, aromataza ingibitorlarini qabul qiluvchilarning yarmidan ko‘pida kuchli bo‘g‘im og‘rig‘i kuzatiladi va bunday bemorlarning qariyb yarmi dorini to‘xtatadi yoki dozasini kamaytiradi [10]. Bu esa kasallik qaytalanishi xavfini oshiradi.

Saratonga qarshi ko‘plab samarali dorilar o‘simliklardan ham olingan. Masalan, paklitaksel Tinch okeani tis daraxti (Taxus brevifolia) po‘stlog‘idan ajratilgan birikma asosida olingan [11], dotsetaksel esa Yevropa tisi (Taxus baccata) ignabarglaridan olinadigan moddadan sintez yo‘li bilan tayyorlanadi. Vinorelbin va vinkristin pushti katarantus (Catharanthus roseus) alkaloidlarining yarimsintetik hosilalaridir. Eribulin esa dengiz gubkasidan topilgan birikma asosida yaratilgan. Lekin ushbu dori vositalarining asosiy qismi yarimsintetik dori vositalari bo‘lganligi uchun ham zararli xususiyatlar va asoratlardan holi emas [12]. Bu misollar o‘simlik dunyosida saratonga qarshi faol moddalarni izlash istiqbolli yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi.

2. Sut bezi saratonini davolashda xalq tabobatining imkoniyatlari.

Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo miqyosida boshqa kasalliklar singari sut bezi saratonini davolashda standart davolash bilan birga xalq tabobati usullarini integrativ tarzda qo‘llash ko‘p tomonlama ijobiy samara bermoqda. Ayniqsa, xalq tabobatining usullari va vositalari standart terapiyada qo‘llanilayotgan dori vositalarini salbiy ta’sirlari, shuningdek, asoratlarini kamaytirishda juda yaxshi ta’sir qilmoqda. Shu bilan birga, xalq tabobati usullari organizm immunitetini oshirib, saraton kasalligini tarqalishini oldini olish, yashovchanlik va kasallikka qarshi kurashuvchanikni oshirishda yaxshi samara bermoqda.

Chunonchi, biz tomonimizdan tarkibida kurkumin (zarchava), katexinlar, resveratrol kabi birikmalar saqlagan o‘simlik ekstraktlari va konsentratlari asosida tayyorlangan “Ascurcumin”, “Aslidoksifen”,

“Antivir”, “Majmui Rahmoniy” kabi kompozitsion tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalarining o‘sma hujayralariga ijobiy, shu bilan birga zararsiz va asoratlarsiz ta’siri laborator sinovlardan o‘tkazilib, bemorlarda turli xildagi saratonni davolashi klinik tadqiqotlarda isbotlangan. Natijada, ilmiy dalillar asosida ushbu oziq-ovqat qo‘shilmalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligida ro‘yxatga olinib, ruxsatnoma asosida amaliyotga joriy etilgan. Ushbu tabiiy oziq-ovqat qo‘shilmalari ayniqsa nur va kimyoterapiydan so‘ng qo‘llanilsa organizm immunitetini ko‘tarish evaziga, kasallikka qarshi kurashuvchanligini oshiradi. Shu bilan birga sog‘lom hujayralarning ko‘payishi va to‘qimalarning mustahkamligni ta’minlaydi, saraton hujayralarini esa oziqlanish imkoniyatlarini kamaytirib, ko‘payishi va rivojlanishini sekinlashtiradi [13, 14].

Dunyo miqyosida ham tananing va ruhiyatning holatiga ta’sir qiluvchi jismoniy mashg‘ulotlar va xalq tabobati usullari standart terapiya bilan birga qo‘llanilmoqda [15]. Masalan, Amerika klinik onkologiya jamiyati (ASCO) va Integrativ onkologiya jamiyati (SIO) sut bezi saratoni bo‘yicha bunday usullarga oid tavsiyalarni ishlab chiqqan [16, 17]. Ulardan ayrimlarining samarasi ilmiy jihatdan isbotlangan. Chunonchi, kimyoterapiyadan so‘ng zanjabil va boshqa dorivor o‘slimliklar immunitetni oshirib, ko‘ngil aynishi va qusishni kamaytirishi isbotlangan [18]. Akupunktura esa metastazani kamaytirish uchun tavsiya etiladi [19]. Klinik tadqiqotlarda haftasiga ikki marta, olti hafta davomida akupunktura olgan ayollarda aromataza ingibitorlari chaqirgan bo‘g‘im og‘rig‘i kamayganli isbotlangan [20]. Bu usullar asoratlarni yengillashtirib, bemorga davolash kursini oxirigacha yakunlashga yordam beradi. Aynan shu jihat ularning eng katta foydasidir.

Xulosa. Sut bezi saratonida qo‘llaniladigan sintetik va yarimsintetik dorilar bemorlar hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega, ammo yurak, nerv tizimi, qon, suyak va boshqa a’zolarga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bu asoratlar bemor hayot sifatini keskin pasaytiradi va ko‘pincha davolashni to‘xtatishga, va hatto o‘limga sabab bo‘ladi. Xalq tabobati esa sog‘lom insonlarda profilaktik chora sifatida, kasallikka chalingan bemorlarda kasallikning dastlabki bosqichlarida sintetik dorilarsiz qo‘llanilsa ham asoratsiz ijobiy samara berishi mumkin. Kasallikning yuqori darajalarida esa, standart terapiyaga integrativ tarzda xalq tabobati usullaridan foydalanish organizm immunitetini ko‘tarish evaziga birinchidan, kimyoterapiya yoki nurterapiyaning asoratlarini yengillashtiradi, ikkinchidan, saraton hujayralarining ko‘payishi va rivojlanishini oldini oladi, uchinchidan esa sog‘lom hujayralarning yashovchanligi va ko‘payishiga ijobiy ta’sir qiladi. Shuning uchun ham, saraton kasalligiga chalingan bemorlarga muntazam ravishda xalq tabobati usullari va vositalaridan foydalanish, faqat zaruriy hollardagina sintetik dori vositalarini qo‘llash tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Bray F., Laversanne M., Sung H. va boshq. Global cancer statistics 2022: GLOBOCAN estimates of incidence and mortality worldwide for 36 cancers in 185 countries // CA: A Cancer Journal for Clinicians. – 2024. – Vol. 74, №3. – P. 229–263.
2. O‘zbekistonda onkologik yordam modernizatsiya qilinmoqda // Anhor.uz. – URL: https://anhor.uz/uzl/news/ozbekistonda-onkologik-yordam-modernizatsiya-qilinmoqda/
3. Loibl S., André F., Bachelot T. va boshq. Early breast cancer: ESMO Clinical Practice Guideline for diagnosis, treatment and follow-up // Annals of Oncology. – 2024. – Vol. 35, №2. – P. 159–182.
4. Early Breast Cancer Trialists’ Collaborative Group (EBCTCG). Comparisons between different polychemotherapy regimens for early breast cancer: meta-analyses of long-term outcome among 100 000 women in 123 randomised trials // Lancet. – 2012. – Vol. 379, №9814. – P. 432–444.
5. Lyon A.R., López-Fernández T., Couch L.S. va boshq. 2022 ESC Guidelines on cardio-oncology // European Heart Journal. – 2022. – Vol. 43, №41. – P. 4229–4361.
6. Loprinzi C.L., Lacchetti C., Bleeker J. va boshq. Prevention and management of chemotherapy-induced peripheral neuropathy in survivors of adult cancers: ASCO guideline update // Journal of Clinical Oncology. – 2020. – Vol. 38, №28. – P. 3325–3348.

7. Early Breast Cancer Trialists' Collaborative Group (EBCTCG). Aromatase inhibitors versus tamoxifen in early breast cancer: patient-level meta-analysis of the randomised trials // Lancet. – 2015. – Vol. 386, №10001. – P. 1341–1352.
8. Modi S., Jacot W., Yamashita T. va boshq. Trastuzumab deruxtecan in previously treated HER2-low advanced breast cancer // New England Journal of Medicine. – 2022. – Vol. 387, №1. – P. 9–20.
9. Schmid P., Cortes J., Dent R. va boshq. Overall survival with pembrolizumab in early-stage triple-negative breast cancer // New England Journal of Medicine. – 2024. – Vol. 391, №21. – P. 1981–1991.
10. Acupuncture reduces joint pain due to breast cancer treatment // NewYork-Presbyterian. – 10.07.2018. – URL: https://www.nyp.org/news/acupuncture-reduces-joint-pain-due-to-breast-cancer-treatment
11. Wani M.C., Taylor H.L., Wall M.E., Coggon P., McPhail A.T. Plant antitumor agents. VI. The isolation and structure of taxol, a novel antileukemic and antitumor agent from Taxus brevifolia // Journal of the American Chemical Society. – 1971. – Vol. 93, №9. – P. 2325–2327.
12. Newman D.J., Cragg G.M. Natural products as sources of new drugs over the nearly four decades from 01/1981 to 09/2019 // Journal of Natural Products. – 2020. – Vol. 83, №3. – P. 770–803.
13. И.Р.Асқаров. Табобат қомуси. Мумтоз сўз. Тошкент – 2019. – 1590 б.
14. И.Р.Асқаров. Сирли табобат. – Т: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 2021. – 1084 б.
15. Guideline addresses use of integrative therapies for cancer-related pain management // Healio. – 30.11.2022. – URL: https://cm.healio.com/news/hematology-oncology/20221130/guideline-addresses-use-of-integrative-therapies-for-cancerrelated-pain-management
16. Greenlee H., DuPont-Reyes M.J., Balneaves L.G. va boshq. Clinical practice guidelines on the evidence-based use of integrative therapies during and after breast cancer treatment // CA: A Cancer Journal for Clinicians. – 2017. – Vol. 67, №3. – P. 194–232.
17. Lyman G.H., Greenlee H., Bohlke K. va boshq. Integrative therapies during and after breast cancer treatment: ASCO endorsement of the SIO clinical practice guideline // Journal of Clinical Oncology. – 2018. – Vol. 36, №25. – P. 2647–2655. doi:10.1200/JCO.2018.79.2721
18. SIO guideline on the use of integrative therapies for breast cancer // Medical Dialogues. – 20.06.2018. – URL: https://speciality.medicaldialogues.in/sio-guideline-on-the-use-of-integrative-therapies-for-breast-cancer
19. Integrative Therapies During and After Breast Cancer Treatment: Key Recommendations // Guideline Central. – URL: https://guidelinecentral.com/guideline/39773
20. Hershman D.L., Unger J.M., Greenlee H. va boshq. Effect of acupuncture vs sham acupuncture or waitlist control on joint pain related to aromatase inhibitors among women with early-stage breast cancer: a randomized clinical trial // JAMA. – 2018. – Vol. 320, №2. – P. 167–176. doi:10.1001/jama.2018.8907